

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON DAVLATLARI O‘RTASIDAGI MADANIY HAMKORLIKNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

G‘aybullayev Abror Abdullayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: abrorgaybullayev62@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-8264-0550>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikning shakllanishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so‘ng imzolangan xalqaro bitimlar, strategik sheriklik deklaratsiyalari, qo‘shma madaniy dasturlar va tadbirlar ikki davlat munosabatlarining madaniy diplomatiyadagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilgani ko‘rsatiladi. Shuningdek, maqolada qozoq milliy madaniy markazi, etnografik muzeylar, milliy bayramlar va “Nurli jol” gazetasi orqali amalga oshirilayotgan faoliyatlar misol sifatida keltiriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Qozog‘iston, madaniy hamkorlik, madaniy diplomatiya, tarixiy meros, qozoq milliy madaniy markazi, qo‘shma tadbirlar, integratsiya

Аннотация: В статье анализируется формирование и развитие культурно-гуманитарного сотрудничества между Узбекистаном и Казахстаном. Показано, что международные соглашения, подписанные после обретения независимости, декларации о стратегическом партнерстве, совместные культурные программы и мероприятия способствовали укреплению позиций отношений двух государств в культурной дипломатии. В статье также приводятся примеры мероприятий, проводимых через Казахстанский национальный культурный центр, этнографические музеи, национальные праздники и газету «Нурли Жол».

Ключевые слова: Узбекистан, Казахстан, культурное сотрудничество, культурная дипломатия, историческое наследие, Казахстанский национальный культурный центр, совместные мероприятия, интеграция.

Abstract: The article analyzes the formation

and development of cultural and humanitarian cooperation between Uzbekistan and Kazakhstan. It is shown that international agreements signed after independence, declarations of strategic partnership, joint cultural programs and events served to strengthen the position of the relations of the two states in cultural diplomacy. The article also cites as examples the activities carried out through the Kazakh National Cultural Center, ethnographic museums, national holidays and the newspaper "Nurli Zhol".

Keywords: Uzbekistan, Kazakhstan, cultural cooperation, cultural diplomacy, historical heritage, Kazakh National Cultural Center, joint events, integration.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi madaniy hamkorlik ikki davlatning mustahkam qo‘shnichilik aloqalari, mushtarak tarixiy ildizlari va umumiy madaniy merosga bo‘lgan hurmatiga tayangan holda shakllanib kelmoqda. Mustaqillikdan so‘ng ikki mamlakat o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun huquqiy, institutsional va madaniy mexanizmlarni faol ravishda rivojlantirdi. Bu jarayon nafaqat ikki davlat munosabatlarining mustahkamlanishiga, balki xalqlar o‘rtasidagi barqaror madaniy-gumanitar muloqot va integratsiya muhitining rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1991-yildan boshlab ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar tizimli ravishda rivojlantirildi. Ular samarali huquqiy bazani yaratish, qo‘shma dasturlar va loyihalarni amalga oshirish, ijodiy hamkorlikni kengaytirish hamda tarixiy merosni birgalikda o‘rganish orqali mustahkamlandi. Xususan, 1994-yil 10-yanvarda imzolangan

“O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi hukumati o‘rtasida madaniyat, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, ta‘lim, turizm va sport sohasida hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi Bitim” ikki tomonlama madaniy-gumanitar aloqalarning asosiy poydevorini yaratdi[4].

O‘zbekiston va Qozog‘iston xalqlari turkiy madaniyatga mansub bo‘lib, adabiyot, musiqiy va san‘at merosida o‘zaro yaqinlikni saqlab keladi. Shu bilan birga, qadimiy do‘stona rishtalar va tarixiy umumiylik madaniy hamkorlikning tabiiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu meros va mushtarak qadriyatlar ikki davlat o‘rtasidagi qo‘shma madaniy loyihalarni amalga oshirish, xalqlar o‘rtasidagi ma‘naviy rishtalarni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Mavjud huquqiy hujjatlar, qo‘shma dasturlar va zamonaviy tashabbuslar O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni nafaqat davom ettirish, balki kengaytirish va strategik darajaga ko‘tarish imkonini berdi. Shu tariqa, ikki davlat o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar nafaqat tarixiy merosga tayangan holda rivojlanadi, balki zamonaviy madaniy diplomatiya vositalari orqali yangi bosqichga o‘tdi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni mustahkamlash jarayonida imzolangan xalqaro hujjatlar aloqalarning huquqiy poydevorini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Xususan, 1998-yil 31-oktyabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma” ikki tomonlama munosabatlarning barqaror va uzoq muddatli asoslarini mustahkamladi. Ushbu shartnoma davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch, ochiqlik va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillarini mustahkamlab, do‘stona aloqalarni yangi darajaga olib chiqdi. Shu bilan birga, shartnoma madaniy-gumanitar sohada hamkorlikni tizimli ravishda rivojlantirish uchun barqaror poydevor yaratdi[2:53].

Bundan tashqari, 2013-yil 14-iyunda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Strategik

shariklik to‘g‘risidagi shartnoma” ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini berdi. Ushbu hujjat siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy yo‘nalishlarda aloqalarni kengaytirish, xalqaro maydonda hamkorlikni chuqurlashtirish va umumiy tarixiy merosni asrash bo‘yicha qo‘shma tashabbuslarni rivojlantirishga xizmat qildi. Shartnoma ikki mamlakatning tarixiy rishtalari va mintaqaviy manfaatlarga asoslangan madaniy integratsiyasini yanada faollashtirishga imkon berdi, bu esa Markaziy Osiyoda barqaror hamkorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik rivojida 2017-yil alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 22–23 mart kunlari Qozog‘istonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki davlat munosabatlarida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tashrif davomida oldingi yillarga nisbatan ikki tomonlama aloqalarda sezilarli faollik kuzatildi va hamkorlikning barcha yo‘nalishlarida yuqori natijalarga erishildi[1:17].

Davlat rahbarlari muzokaralari natijasida “Strategik shariklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash to‘g‘risidagi Qo‘shma deklaratsiya” imzolandi. Mazkur hujjat siyosiy ishonchni mustahkamlash bilan birga, madaniyat, ta‘lim, san‘at, turizm va ilmiy tadqiqotlar sohalaridagi integratsion jarayonlarni jadallashtirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Ushbu deklaratsiya amalga oshirilganidan so‘ng, xalqaro maydondagi hamkorlik, qo‘shma madaniy tadbirlar va ijodiy almashinuvlar sezilarli darajada kengaydi.

Shuningdek, O‘zbekistonda Qozoq millatiga mansub aholining madaniy manfaatlarini himoya qilish va ularning etnik o‘ziga xosligini saqlash borasidagi institutsional mexanizmlar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq shakllangan. 1992-yildan buyon O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Qozoq milliy madaniy markazi bu yo‘nalishda markaziy rol o‘ynaydi. Bugungi kunda markazning Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi bo‘linmasi, shuningdek, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Sirdaryo va

Toshkent viloyatlaridagi hamda Toshkent shahridagi hududiy bo'linmalari faoliyat olib bormoqda, bu esa mahalliy va mintaqaviy madaniy hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Markazning asosiy faoliyati Qozoq millatiga mansub fuqarolarning madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, qozoq tilini o'rganish va ta'lim jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, xalqning an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylash hamda ommalashtirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, markaz oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik qilib, yoshlarni qozoq tilida ta'lim olishga rag'batlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishga intiladi.

Markaz faollarining tashabbusi bilan Navoiy viloyati Konimex tumanida tarixiy-etnografik muzey, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida esa "Shaxsham" etnografiya muzeyi tashkil etilgan. Ushbu loyihalar O'zbekistonda qozoq madaniy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, markaz tomonidan madaniy-ma'rifiy yo'nalishda an'anaviy bayramlar va tadbirlar muntazam o'tkaziladi. Jumladan, har yili "Aytis" oqinlar musobaqasi, "Altibaqan" va "Tusaukeser" kabi qadriyatlarga bag'ishlangan milliy bayramlar tashkil etilib, xalqlar o'rtasidagi madaniy muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi[5].

O'zbekiston qozoqlari madaniy hayotida muhim rol o'ynayotgan omillardan biri — mamlakatda qozoq tilida nashr qilinadigan "Nurli jol" gazetasi hisoblanadi. Ushbu nashr axborot almashinuvi, milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni asrab-avaylash jarayonlariga sezilarli hissa qo'shadi, shu bilan birga ikki qardosh xalq o'rtasidagi madaniy-gumanitar muloqotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ikki davlat madaniy aloqalarining rivojlanishida davlat rahbarlarining e'tibor va tashabbuslari alohida ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-martdagi qaroriga binoan buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qononboyevning ijodiy merosini chuqur

o'rganish yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, Qozog'istonda ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning 577 yilligi keng nishonlandi. Bu tadbirlar ikki davlatning umumiy madaniy merosga bo'lgan hurmatini yaqqol namoyon etib, madaniy-gumanitar hamkorlikning izchil mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Shu tarzda, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy aloqalar mazmun-mohiyati kengayib, yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda[3].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasida xalqlar o'rtasidagi do'stlik va ishonch rishtalarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy ildizlar, umumiy madaniy meros, til va urf-odatlardagi mushtaraklik ikki davlatning madaniy diplomatiyasini shakllantirish va rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan huquqiy va institutsional tashabbuslar, jumladan xalqaro bitimlar, strategik sheriklik deklaratsiyalari, madaniy dasturlar va qo'shma tadbirlar madaniy hamkorlikni izchil rivojlantirishga xizmat qildi. Qozoq millatiga mansub fuqarolar madaniy ehtiyojlarini qondirish, ularning til va madaniy merosini saqlash, shuningdek, ijodiy va ilmiy almashinuvlarni rag'batlantirish yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan faoliyat ham ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.

Xususan, 2018–2019 yillarda o'tkazilgan "O'zbekiston yili" va "Qozog'iston yili" kabi qo'shma madaniy loyihalar ikki xalqning tarixiy va madaniy merosini keng jamoatchilikka taqdim etish, xalqlar o'rtasidagi madaniy muloqotni chuqurlashtirish va Markaziy Osiyoda barqaror hamkorlik muhitini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, madaniy diplomatiya ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni qo'llab-quvvatlashga, xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Natijada, O'zbekiston va Qozog'iston madaniy hamkorligi mintaqaviy integratsiya va barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida

mustahkamlanib, zamonaviy madaniy diplomatiya shakllanishida yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda.

**ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — T.: O'zbekiston, 2018. — B. 17.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 11 jild. — T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. — B. 53.
3. Xalq so'zi. 2021-yil 8-dekabr.
4. <https://lex.uz/docs/-2565040>
5. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-va-qozogiston-madaniy-gumanitar-jonalishdagi-hamkorlikning-yangi-bosqichi>